

ICHKI ISHLAR ORGANLARI AXBOROT-TAHLIL ISHINI AMALGA OSHIRISHDA XALQORO HAMKORLIK

Ro'zimov Mardonbek Hamrobek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kunduzgi ta'lim

3- o'quv kursi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10416672>

Annotatsiya: Muallif mazkur maqolada Ichki ishlar organlari faoliyatida axborot-tahlil ishini amalga oshirishda hamkorlik, xorijiy davlati huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan tashkiliy va siyosiy aloqalarni rivojlantirish bilan birgalikda islohotlarni amalga oshirish hamda ushbu faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari va ushbu sohada hozirgi kundagi ayrim muammolarni yoritgan.

Kalit so'zlar: axborot, tahlil, axborot-tahlil ishini amalga oshirishda hamkorlik, Ichki Ishlar Vazirligi Xalqaro Hamkorlik Boshqarmasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 5-martdagi "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarda chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi 2142-sonli qarori va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lish samadorligini va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarni shaxsiy mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlarini to'g'risida" 2017 yil 3-avgust kuni PQ-3170-son qarori qabul qilindi.

Shunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro hamkorligini takomillashtirish maqsadida Ichki Ishlar Vazirligida 2017-yilda Xalqaro Hamkorlik Boshqarmasi tashkil qilingan. Ichki Ishlar Vazirligi tomonida Xalqaro hamkorlik tadbirlarini tashkil qilish to'g'risida buyruqlari ishlab chiqildi¹. Bu Xalqaro Hamkorlik Boshqarmasi faqat Ichki Ishlar Vazirligida mavjud bo'lib asosiy vazifasi xorijdan kelgan delegatsiyalarni kutib olish tashkiliy jihatdan ta'minlash ular bilan uchrashuv belgilash va shunga o'xshash dasturlarni ishlab chiqishdan iborat.

"2023yil 2-dekabr kuni Abu-Dabi shahrida O'zbekiston ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov boshchiligidagi delegatsiya Birlashgan Arab Amirliklari bosh vaziri o'rinbosari — ichki ishlar vaziri Shayx Sayf bin Zoid Ol Nahayon bilan uchrashdi.

IIV matbuot xizmatining xabar qilishicha, uchrashuv davomida «O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Birlashgan Arab Amirliklari hukumati o'rtasida haydovchilik guvohnomalarini o'zaro tan olish va almashish to'g'risida»gi anglashuv memorandumini imzolangan.

Ta'kidlanishicha, mazkur memorandumning kuchga kirishi bilan har ikki davlat fuqarolari o'zlarining milliy haydovchilik guvohnomalari bilan ikkinchi tomon davlatining hududiga tashrif buyurgan davrda (uzoq muddatga yashash uchun kelganlar bundan mustasno) transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'ladi.

BAA rezidenti bo'lgan (uzoq muddatga yashash huquqini olganlar) milliy haydovchilik guvohnomasiga ega O'zbekiston fuqarolari BAA haydovchilik guvohnomasini olish vaqtida tegishli nazariy va amaliy sinovlarni topshirishdan ozod qilinadi.

Hujjat 2024 yilning 27 yanvaridan kuchga kirishi belgilangan.

¹<https://m.kun.uz/uz/news/2023/12/03/ozbekiston-va-baa-haydovchilik-guvohnomalarini-ozaro-tan-olishga-kelishdi>

Shuningdek, bo'lib o'tgan uchrashuvda tomonlar transmilliy uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi va kiberjinoyatlarga qarshi birgalikda kurashish, mazkur yo'nalishlarda xodimlarning malakasini oshirish va o'zaro tajriba almashishni muhokama qildi"

Ichki ishlar organalarida Xalqaro hamkorlik bo'yicha yana bir islohotlar biri bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlari Vazirligida Akademiyasida xorijiy davlatlar ichki ishlar (politsiya) kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi (keyingi o'rinlarda — Akademiya)da xorijiy davlatlar ichki ishlar organlari (politsiya) kadrlarini (keyingi o'rinlarda — xorijiy kadrlar) tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish (keyingi o'rinlarda — ta'lim berish) tartibini belgilaydi.

Akademiyada xorijiy kadrlarga ta'lim berish ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Akademiyada xorijiy kadrlar uchun yillik qabul kvotalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Xorijiy davlatlar kesimidagi har yilgi kvota, mutaxassislik va o'qitish turi bo'yicha taqsimot O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi apparati bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Xorijiy kadrlarni o'qishga qabul qilish Vazirlikka xorijiy davlatlarning vakolatli organlari taqdim etgan rasmiy murojaatga asosan rejalashtiriladi.

Xorijiy davlatlar vakolatli organlarining xorijiy kadrlar ta'lim olishi bo'yicha qilgan rasmiy murojaatlarini ko'rib chiqish, kvotalar ajratish uchun ro'yxatni shakllantirish tartibi va o'qishga qabul qilish muddati O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.²

Hamkorlik ayrim ichki ishlar organlari o'rtasida (masalan, bir ichki ishlar boshqarmasi boshqasi bilan hamkorlik qiladi), turli organlarning bo'linmalari va xizmatlari o'rtasida (aytaylik, bir shahar (tuman) jamoat tartibini saqlash xizmati boshqa shahar (tuman) ichki ishlar organining jamoat tartibini saqlash xizmati bilan hamkorlik qiladi), ayni bir organning turli bo'linmalari, xizmatlari va xodimlari o'rtasida (masalan, jinoyat-qidiruv bo'limining xodimi profilaktika inspektorining xodimi bilan hamkorlik qiladi).

Ichki ishlar organlaridagi hamkorlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- axborot ayirboshlash;
- tadbirlarni birgalikda rejalashtirish;
- o'tkazishni tashkillashtirish.

Ichki Ishlar Vazirligi Xalqaro hamkorlik Boshqarmasida axborot-tahlil bo'limi mavjud. Bu bo'lim hamkorlikda qilingan ishlarni umumiy yig'ib ularni tahlil qilib, muommoli vaziyatlarni o'rganib yo'l qo'yilgan kamchilikni aniqlash ularga yechim topish takliflarni bildirish to'g'risida dasturlarni ishlab chiqish. Axborot-tahlil bo'limi kelib tushayotgan ma'lumotlarning ahamiyati, to'liqligi va ishonchligi nuqtai nazaridan baholash. Axborot-tahlil ma'lumotlari ro'yxatini tuzish va taqdim etish tartibini belgilash. tahlilchi-tadqiqotchi tomonidan bajariladigan faoliyat turlarini qamrab oladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.08.2023 yildagi PQ-282-son O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlari Vazirligida Akademiyasida xorijiy davlatlar ichki ishlar (politsiya) kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida qarori

Axborot ishini samarali tashkillashtirish va yuritish uchun muammo(ob'ekt)ga tahliliy baho berishda asos bo'lib xizmat qiladigan mazkur ishning tamoyillari, bosqichlari hamda o'rganilayotgan asosiy omillarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Axborotlarni qayta ishlash yig'ilgan ma'lumotlarni tartiblashtirish, tizimlashtirish, ko'rib chiqish va sharhlash uchun ixchamlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, u shunaqangi shaklga keltiriladiki tushunish aniq va sodda bo'ladi.

References:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/3311>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-3877315>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.08.2023 yildagi PQ-282-son O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlari Vazirligida Akademiyasida xorijiy davlatlar ichki ishlar (politsiya)kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida qarori;
4. Ismoilov I., Ziyodullaev M Z va boshqalar. Axborot-tahliliy faoliyat asoslari: Darslik. 2015
5. <https://m.kun.uz/uz/news/2023/12/03/ozbekiston-va-baa-haydovchilik-guvohnomalarini-ozaro-tan-olishga-kelishdi>